

XOTIN-QIZLARINING MUAMMOLARI, EHTIYOJLARI VA QIZIQISHLARINI O'RGANISH ORQALI TIZIMLI TAHLIL QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17332534>

Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna

O'zJOKU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Elektron pochta: mahbuaburieva6@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada xotin-qizlarining muammolari, ehtiyojlari, qiziqishlarini o'rganish, tizimli tahlil qilish va muammolarni hal etish bo'yicha anketa usuli orqali o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

xotin-qizlar, bandlik, mehnat bozori, daromad, ma'lumot, oila, tadqiqot, so'rovnoma.

Аннотация

В данной статье освещены результаты социологического опроса, проведенного методом анкетирования по изучению проблем, потребностей, интересов женщин, системному анализу и решению проблем.

Ключевые слова

женщины, занятость, рынок труда, доход, образование, семья, исследование, опрос.

Abstract

This article highlights the results of a sociological survey conducted using a questionnaire method to study, systematically analyze, and solve the problems, needs, and interests of women.

Keywords

women, employment, labor market, income, education, family, research, survey.

2024-yilda O'zbekiston aholisi soni 36799,8 mingga yetgan, shulardan 49,7 foyizni xotin - qizlar tashkil etgan bo'lib, 2023 yilda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 66,0% ni, iqtisodiyotda band bo'lgan xotin-qizlar soni 5840,6 ming kishini

tashkil etdi. 2023/2024 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida 1 042 100 nafar talaba tahsil olgan, ulardan 4947 58 nafarini qizlar tashkil etgan.

16-25 yosh oralig'idagi xotin-qizlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 2018 yildan 2020 yilgacha o'sgani kuzatilgan va 2020 yilda eng yuqori darajaga yetgan (23,4 foiz). 2021 yildan esa ishsizlik darajasi pasayib, 2022 yilda yanada pasayganini ko'rish mumkin. Toshkent shahri bu borada boshqa hududlardan farq qiladi. Ayollar orasida ishsizlik darajasi 2020 yildan boshlab keskin kamaygan va 2022 yilda 10,7 foizga tushgan.

2022 yilda 16-25 yosh oralig'idagi xotin-qizlarning ishsizlik darajasi eng yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo (22,3 foiz), Samarqand (21,1 foiz), Farg'ona (20,9 foiz), Surxondaryo (20,7 foiz), Andijon (20,5 foiz) viloyatlarida, nisbatan past ko'rsatkichlar Buxoro (16,1 foiz), Sirdaryo (15,6 foiz), Navoiy (14,9 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (10,7 foiz) qayd etilgan.

2025 yilning aprel-may oylarida Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo, Namangan viloyatlari hamda Toshkent shahridan xotin-qizlarining muammolari, ehtiyojlari, qiziqishlarini o'rganish, tizimli tahlil qilish va muammolarni hal etish bo'yicha anketa usuli orqali sotsiologik so'rov o'tqazildi.

Mazkur tadqiqot natijasida quyidagi holatlar aniqlandi va xulosalarga kelindi:

Xotin-qizlarning mehnat faoliyati va bandligiga bo'lgan qarashlari ularning yoshiga, yashash joyiga, ta'lim darajasiga, oilaviy holatiga, farzandlar soniga va bandligiga ko'ra farqlanmoqda.

Xususan, xotin-qizlarining deyarli hammasi (93.8 foiz) xotin-qizlarning mehnat faoliyatida band bo'lishi hamda ishlashi lozimligiga ijobiy munosabat bildirishmoqda.

Shuningdek, hududlardagi bandlik va daromad olishdagi muammolar o'rganilganda Jizzax va Xorazm viloyati *xotin-qizlarning aksariyati ayollarning albatta mehnat bozorida faol bo'lishi hamda ishlashi lozimligini ta'kidlashgan bo'lsa*, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent shahridagi *xotin-qizlarning ishlashi uchun oilaning ruxsati hamda ish va ro'zg'or yumushlarini o'rtasidagi muvozanat muhimligi ko'proq qayd etildi*. Xususan, Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlarning oilasi va ishini olib borish sharti bilan (38 foiz), shuningdek, har qanday sharoitda (36 foiz) ishlashi lozimligi borasidagi fikrlar teng natijalarni, oilaning ruxsati bilan ishlash javobi 13 foizni tashkil etgani bunga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari shahar joylaridagi xotin-qizlar orasida ishsizlikning asosiy sababi **ish topish qiyinligi** (22,6 foiz) va **ishlash istagining yo'qligi** (34,8 foiz) bilan belgilanmoqda. Keyingi o'rinlarda oilaning ruxsat bermasligi (13,2 foiz) hamda oila yumushlarining ko'pligi (11,2 foiz) sabablari qayd etildi. Qishloq hududidagi xotin-

qizlar orasida ish topish qiyinligi (36,6 foiz), ishlashni istamaslik (28,1 foiz) bilan birgalikda oilaviy yumushlarning ko'pligi (17,7 foiz) asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Keyingi o'rinlarda oilasining ruxsat bermasligi (13,8 foiz) hamda kunlik ishlardan ko'proq daromad olish (12,5 foiz) xotin-qizlarning ishsizligining sababi sifatida qayd etildi.

Ma'lumot o'rnida: Respublikamizda 2024 yilda davlat solik organlarida ro'yhatdan o'tgan 1 105 366 ta o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlar mavjud, 2020 yilga nisbatan 4 baravar ko'paygan, ja'mi o'zini-o'zi band qilganlar ichida xotin-qizlar 43,6 foyizni tashkil etdi.

25-29 yoshli respondentlarning har uchinchisi (28,8 foiz) o'zlari **ishlashni istamasliklarini** ta'kidlashgan. Kunlik ishlardan ko'proq daromad olishi bilan bog'liq ishsizlik holatlari asosan 25-29 yoshdagi (10,3 foizi) va 30-45 yoshdagi (12,3 foiz) respondentlar orasida ko'proq kuzatildi. Tadqiqot davomida ushbu toifa uchun kunlik ishlar ehtiyoj paydo bo'lganida **tez daromad olish va kunini moslash imkoniyati** tufayli afzal ko'rilishi aniqlandi. Ish topish qiyin deb hisoblovchi respondentlar orasida **18-19 yosh** (30,2 foiz) va 30-45 yoshdagi (33,9 foiz) ayollar ko'proq qayd etildi. 20-29 yosh oralig'idagi xotin-qizlarning 20 foizga yaqini **oiladagi yumushlari** tufayli ishlay olmayotganini ta'kidlashgan.

Xotin-qizlar ishlamasliklarining asosiy sabablari sifatida oilaviy omil, o'zining talablariga mos bo'lgan ishni topishning qiyinligi hamda xohishining yo'qligi namoyon bo'ldi.

Respondentlar oilaviy yumushlar (13,9 foiz) va oila a'zolarining to'sqinlik qilishi (12,8 foiz) ishlamasliklarining sabablaridan biri sifatida qayd etildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har o'ninchi ayol (10 foiz) **kunlik ishlardan ko'proq daromad olishi, doimiy ish jadvali ularga mos emasligi** uchun rasman ishga joylashmaganini aytib o'tgan. Xotin-qizlar orasida **oliy ta'limda tahsil olayotganlari uchun** ishlamayotganliklari ham qayd etildi;

Ma'lumot o'rnida: 30-35 yosh toifasidagi xotin-qizlar orasida ham oliy ta'limga kirish darajasi ortgan. 2023 yil natijalariga ko'ra, 17 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan talabalar orasida xotin-qizlar ulushi 50-55 foizni tashkil etgan bo'lib, 21-29 yosh oralig'ida 41-47 foizgacha pasaygani kuzatilmoqda. 30 yoshdan kattalar orasida esa xotin-qizlar ulushi yana ortgani va 53-59 foiz oralig'ida ekanligini qayd etish mumkin

Tadqiqotda ishtirok etgan xotin-qizlarning uchdan bir qismi (**34,4 foiz**) **uy yumushlari va oila a'zolari parvarishi** bilan shug'ullanishga ko'proq vaqt ajratib, ishlamaslikni afzal ko'rishadi.

Ish faoliyatida band bo'lgan **ayollarning har ikkinchisi (51 foiz)** oilaviy qo'llab-quvvatlash tufayli ish va oilaviy majburiyatlarni birgalikda **samarali olib**

borayotganliklarini aytib o'tishgan. Bu xotin-qizlar oilasidan ko'mak olgan holda ish faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Xotin-qizlarning ish tanlashida iqtisodiy omil ya'ni yoshi, ma'lumoti, yashash hududi va oilaviy holatidan qat'iy nazar ish tanlashida maosh miqdori hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi.

Respondentlarning 72,8 foizi ishlashni o'zlari va oilalarini moddiy ta'minlashni eng muhim maqsad sifatida ko'rishadi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda respondentlar o'z sohasida uzluksiz o'rganish va kasbiy rivojlanish imkoniyatini (31 foiz) muhim deb hisoblaydi, bu ularning professional o'sishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi.

Qishloq hududlaridagi xotin-qizlar uchun moddiy qiyinchilik (40,8 foiz), oliy ta'lim muassasalarining uzoqligi (17,6 foiz), ta'lim sifatining pastligi (18,1 foiz), oila a'zolarining e'tiborsizligi va moddiy qo'llab-quvvatlamasligi (17,8 foiz) nisbatan ko'proq dolzarbligini qayd etishgan bo'lishsa, o'zi istamagani uchun ta'lim va professional rivojlanishni istmaydigan xotin-qizlar ulushi shahar hududlarida nisbatan yuqoriroq (17,5 foiz), qishloq hududida 11,5 foizni tashkil etgan;

Ma'lumot o'rnida: Xotin-qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyati ularga yuqori malakali mutaxassis bo'lishlariga imkon berishini ishonch bilan aytishgan (44,6 foiz), doimiy ish o'ringa ega bo'lgan davlat tashkilotlarida ishlashi mumkinligi borasida ijobiy fikrlarini (30,3 foiz) ta'kidlashgan. Shu bilan birgalikda oliy ta'lim o'z biznesiga ega bo'lishni (10,3 foiz), chet elda o'qish va ishlashda (3,3 foiz), alohida uy-joyga ega bo'lish (2,6 foiz), ilm-fanda yanada muvaffaqiyatga erishishda (2,2 foiz) imkoniyatlar ochib berishini sanab o'tishgan.

Qishloq va shahar hududidagi xotin qizlarning qiziqish va bandligining farq qilishiga hududiy joylashuv, infrastruktura, qadriyatlar talab va takliflar bir xil ko'rsatgichda emas.

Xususan, **shahar hududida yashovchi** xotin-qizlar uy sharoitida mobil operatorlik, logistika operatori, tarjimon, loyihachi, onlayn o'qituvchi, psixolog, motivator, onlayn yurist, marketolog, grafik dizayner, onlayn menedjer kabi ishlarda faoliyat olib borish qiziqishlari borligi va faoliyat olib borayotganliklari qayd etishgan bo'lsa, **qishloq hududida yashovchi** xotin-qizlar uy sharoitida tikuvchilik, pazandalik, qandolatchilik, nonvoylik, kashtachilik, to'quvchilik, tomarqadan unumli foydalanish, chorva, issiqxonalar boshqa turdagi xizmat ko'rsatish faoliyatini olib bormoqdalar.

25-35 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning (56 foiz) topayotgan oylik *maoshlari o'z ehtiyojlariga yetayotgani*, 36-55 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning (34 foiz) topayotgan oylik maoshlari *o'z ehtiyojlariga yetmayotganligini qayd etishgan.* **25-**

35 yoshgacha bo'lgan turmush qurgan xotin-qizlarning (31 foiz) *oylik maoshlari turmush o'rtog'idan ko'p* topayotganligi, 36-45 yosh (48 foiz) oylik maoshlari turmush o'rtog'ining oylik *maoshlaridan kamligi* va 46-55 yoshgacha (21 foiz) *teng* ekanligini ta'kidlashgan.

Xotin-qizlarga davlat va homiylar tomonidan ko'rsatilayotgan yordami va nafaqalarga suyanib qolish sababli imtiyozlarga bog'lanib qolishi hamda ish faoliyatiga bo'lgan salbiy munosabat ularda boqimandalik kayfiyati yuzaga keltirmoqda.

Xotin-qizlarning aksariyati 25-35 yoshgacha bo'lganlar (63 foiz) internet orqali amalga oshiradigan **onlayn savdo faoliyati bilan shug'ullanishga qiziqishlari yuqori ekanligini ta'kidlashgan**. 36-45 yoshgacha bo'lgan ayollar (30 foiz) hamda 45-55 yoshgacha bo'lgan xotin qizlarda (7 foiz) **onlayn savdo faoliyati bilan** qiziqishlari borligi lekin yoshga doir fobiyalar (o'tkazmalarni to'g'ri o'tkazmaslik, hakerlar hujumidan qo'rqish, elektron himoyani tushunmaslik va x.k.zlar) borligi aniqlandi. **Qishloq hududlarda yashovchi xotin-qizlarda onlayn savdo va IT sohasiga qiziqish shahar xududida yashovchi xotin-qizlarga nisbatan 5 barobar yuqoriligi** lekin IT bog'liq muammolar mavjudligi bunga yetkazib berish xizmati, internet, WI-FI va infrastrukturaning muammolari ko'rsatib o'tishgan.

Xotin-qizlarning aksariyati ish qidirishda tanish-bilishlarni ishga solishni afzal ko'rishadi (39,7 foizi) Keyingi o'rinda ish qidirish saytlaridan foydalanish (32,1 foiz) turadi. Tegishli tashkilotlar, ya'ni mehnat birjalari orqali ish qidirish uchinchi o'rinni egallagan. Gazeta va ko'chadagi e'lonlar orqali ish qidirish eng kam qo'llanilgan usullardan biri ekani aniqlandi.

18-30 yoshli respondentlar ish qidirishda onlayn platformalardan (44,3 foiz) va tanish-bilishlar (38,5 foiz) yordamidan foydalanganligi boshqa yosh guruhlariga nisbatan yuqoriroq.

Qishloq hududlaridagi xotin-qizlar ishga joylashishida asosan **tanish-bilishlar (39,7 foiz)** yordamidan foydalanishi aniqlandi. Har beshinchi holatda ish qidirish **saytlari (15,1 foiz)** orqali ish qidirish amalga oshirilgan. **Shahar joylarida** yashovchi xotin-qizlarning ishga joylashishida **tanish-bilishlar (35,3 foiz)** va **ish qidirish saytlari (27,6 foiz)** bir xil darajada keng tarqalganligi qayd etildi. Shuningdek, ular o'rtasida mehnat birjasi (19,9 foiz) orqali ish qidirish qishloq joylariga (14,4 foiz) nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Internet saytlari orqali ish qidirish oliy ma'lumotli respondentlar (33,7 foiz) o'rtasida eng ko'p tarqalgan. O'rta ma'lumotlilar o'rtasida esa ikki yarim barobar kam, ya'ni 14 foizga yaqinni tashkil etadi. Gazeta va ko'chadagi e'lonlar orqali ish

qidirish o'rta ma'lumotlilar orasida 7,5 foiz, oliy ma'lumotlilar orasida bu ko'rsatkich juda past – 1,4 foiz. Tegishli tashkilotlar (mehnat birjalari) orqali ish qidirish oliy ma'lumotlilar orasida 23,7 foizni tashkil etsa, o'rta ma'lumotlilarda bu ko'rsatkich ikki barobarga kam, ya'ni 12,4 foizni tashkil etgan. Tanish-bilishlar orqali ish qidirish o'rta maxsus ma'lumotlilar o'rtasida ko'proq tarqalgan (33,5 foiz), oliy ma'lumotlilar orasida esa bu ko'rsatkich nisbatan kamroq, 25,1 foizni tashkil etadi.

Qishloq hududida boshqa ish bo'lmagani sababli sohani tanlash holatlari (16,7 foizi) yani xotin-qizlar bandligini ta'minlashda, xususan, ish o'rinlari va sohalarning cheklanganligi muammolari xotin-qizlarning *mavjud bo'lgan kasbga rozi bo'lib* ishlashiga **(19 foiz)** sabab bo'lmoqda.

Oliy ma'lumotli ayollar o'zlari qiziqqan sohalarda (41,5 foiz) faoliyat yuritishni afzal ko'radilar. Bu ko'rsatkich o'rta (35,9 foiz) o'rta maxsus ma'lumotli (22,3 foiz) xotin-qizlar o'rtasida nisbatan pastroq. O'rta maxsus ma'lumotli ayollar orasida ilojisizlikdan ushbu faoliyatni olib borish holati nisbatan ko'proq (20,1 foiz) tarqalgan. Bu ko'rsatkich oliy ma'lumotli ayollar orasida 3 foizni tashkil etadi va ma'lumot darajasi oshgani sari xotin-qizlarning imkoniyat darajasi ortishini namoyon qiladi. O'rta ma'lumotli ayollar orasida oila a'zolarining tavsiyasi asosida ish tanlash 15,5 foizni, oliy ma'lumotlilarda esa 4,1 foizni takshil etadi hamda oliy ma'lumotlilarning o'z fikri asosida harakatlanishini, ularning jamiyatdagi stereotiplarni o'zgartirishda muhimligini ko'rsatadi.

Taklif va tavsiyalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi

1.Qishloq hududlarida sayyor o'quv markazlarini tashkil etish, "Ayollar biznesi" uchun startap loyihalar tanlovi tashkil etish, bandlik xizmatlari orqali genderni teng yondashuvni nazorat qilish, ish beruvchilarni xotin-qizlarni ishga qabul qilishga rag'batlantiruvchi **soliq imtiyozlari** berish.

2.Qishloq hududida yashovchi xotin-qizlar uchun uy sharoitida mobil operatorlik, logistika operatori, tarjimon, loyihachi, onlayn o'qituvchi, psixolog, motivator, mediator, onlayn yurist, marketolog, grafik dizayner, onlayn menedjer kabi ishlarda faoliyat olib borish qiziqishlari borligi va faoliyat olib borishlariga shart sharoitlar yaratish.

3.Ta'limni to'xtatgan xotin-qizlar uchun qayta o'qish va qayta tiklanish dasturlari yaratish (masofaviy yoki qisqa kurslar shaklida), ayollar uchun stajirovka dasturlari va "ustoz-shogird" tizimini rivojlantirish.

4. Yangidan biznes boshlayotgan ayollar uchun kapital qo'llab-quvvatlash jamg'armalari tashkil qilish, bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollarni kooperativ yoki klasterlarga birlashtirish (masalan, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari), bozorlarda, yarmarkalarda ayollar mahsulotlari uchun alohida savdo maydonlari ajratish, ayol tadbirkorlar uchun maxsus yarmarkalar va festivallar uyushtirish.

5. Yosh xotin-qizlar uchun maxsus tanlovlar va biznes g'oyalari bo'yicha mutaxassislar ko'magida loyiha tayyorlash va amaliyotga joriy etish, har bir mahallada ayollar markazi (ta'lim, maslahat, resurs nuqtasi) tashkil etilishi.

6. Jamoatchilik va OAV orqali ishlaydigan ayollarning ijobiy obrazini targ'ib qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Halq so'zi. -T., 2017 yil. 16 iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlar tahlili. <https://stat.uz/uz/>

3. Bo'riyeva.M. Oilalarda barqaror ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash (Xorij tajribasi). International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Toshkent-2025. №3 – B. 433-438